

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAVSHANOVA GULCHERA MAXAMMATOVNA

**TA'LIMNING AXBOROTLASHGAN JAMIYAT FUNKSIONAL
RIVOJLANISHIDAGI O'RNI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Ravshanova Gulchera Maxammatovna

Та’limning axborotlashgan jamiyat funksional rivojlanishidagi o’rni
(ijtimoiy-falsafiy tahlil) 5

Равшанова Гулчера Махамматовна

Роль образования в функциональном развитии информационного общества
(социально-философский анализ)..... 23

Ravshanova Gulchera Makhamatovna

The role of education in the functional development of the information society
(social-philosophical analysis) 45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications 50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAVSHANOVA GULCHERA MAXAMMATOVNA

**TA'LIMNING AXBOROTLASHGAN JAMIYAT FUNKSIONAL
RIVOJLANISHIDAGI O'RNI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

<https://buxdu.uz>

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fal813 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Huseynova Abira Amonovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Teshaev Nutfullo Nasrullaevich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "5" avgust soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (01-92 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "22" iyul kuni tarqatildi.
(2023-yil "22" iyul dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro'zova G. N.
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipova O.T.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim darajasiga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida o'z kuchini saqlab kelayotgan axborot omili axborotlashgan jamiyatning rivojlanish evolyusiyasi va undan raqamli jamiyatga transformatsiyalanishning mahsuli ekanligi bilan ifodalanadi. XXI asr – intellektual asrda YuNESKOning “Axborot hamma uchun”¹ xalqaro dasturining qabul qilinishi axborotni, ayniqsa uning eng yuqori shakli – bilimni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlashda band bo'lgan yoki qisman ishtirok etadigan shaxslarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun jamiyat rivojida ta'lim va axborotning epistemologik, ontologik, tizimli xususiyatlarini, axborotlashtirish jarayonlarida axborot va ta'limning konstruktiv ahamiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilmiy-tadqiqot markazlari va institutlarida ta'lim samaradorligi va uning axborotlashgan jamiyat rivojiga ta'siri hamda zamonaviy texnologiyalar va o'qitish usullarining samaradorligini oshirish masalalari borasida keng ko'lamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Axborot, bilim va axborot texnologiyalari rolining oshishi, aloqa va axborot mahsulotlari va xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushining o'sishi, axborotlashtirishning kuchayishi va global axborot makonini yaratishni talab etadigan axborotlashgan jamiyatda ta'lim tizimining raqamlashtirilishi bevosita jamiyat bilan faol integratsiyalashuviga bog'liq jarayon bo'lib, malakali kadrlar tayyorlash tizimini innovatsion rivojlantirishga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu bois o'zgaruvchan jamiyatda inson dunyoni anglashi uchun ta'lim va axborotlashgan jamiyatni falsafiy tadqiq etish, uning tizimli-atributiv xususiyatlari, funksional-konstruktiv asoslari hamda ta'lim rivojiga ta'sir etuvchi ideologik vositalar hamda ulardan foydalanishiga oid muammolarni yechishga bo'lgan zarurat tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida ta'lim tizimida tub islohotlar, keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga hamda raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish alohida e'tibor qaratilmoqda. “Bularning barchasidan yagona maqsadimiz – maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasiga, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat”². Shu nuqtai nazardan ta'limning axborotlashgan jamiyat o'rni, yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, milliy madaniyatlar transformatsiyasi sharoitida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish hamda ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Программы ЮНЕСКО «Информация для всех» / <http://www.unesco.org/webworld/ifap>; www.ifar.ru

² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “O'zbekiston”, 2021. -Б. 57

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021 yil 4 martdagi PF-6181-son “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiya”ni tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 oktabrdagi 888-son “Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023 yil 6 maydagi 192-son “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini 2023 va 2024 yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek sohaga oid boshqa hujjatlar ijrosini amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’limning axborotlashgan jamiyatdagi o‘rni va funksional rivojlanishiga ta’siri masalalari F.Maxlup³, axborotlashgan jamiyat to‘g‘risidagi maxsus tadqiqotlar E.Masuda, E.Toffler, A.Ursul tomonidan olib borilgan. Axborotlashgan jamiyatda insonning maqsadi va vazifalari iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqligi D.Bell, T.Stouner, A.Turen tadqiqotlarida, axborot va inson omilining intensiv va ekstensiv o‘sib borishi haqidagi ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar E.Giddens, M.Kastels tadqiqotlarida amalga oshirilgan.

³ Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США/ Пер. С. Анг. И.И.Дюмулена [и др]. –М.: Прогресс, 1966. – 462 с.; Masuda Y. The Information Society as Post-Industrial Society. Washington, D.C.: World Future Society: 1991. –P. 171.; Тоффлер Э. Третья волна. –М.: ООО «Издательство АСТ», 2004. -783 с.; Урсул Т.А. Глобальные исследования и становление ноосферы через устойчивое развитие // -М.: Политика и Общество. - 2012. - № 4. -С. 114-125; Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования / Пер.с англ. Под ред. В.Л. Иноземцево. Изд. 2-е, исправ. и доп. –М.: Academia, 2004. - 790 с.; Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США. Перевод с английского. -М.: Прогресс, 1966. - 463 с.; Информационное богатство: профиль постиндустриальной экономики// Новая технологическая волна на Западе. –М.: Прогресс, 1986. –409 с.; Alain Touraine/ Jon Clark, Marco Diani (eds). London; Washington: Falmer Press, 1996; Гидденс Э. Ускользящий мир: как глобализация изменяет нашу жизнь / Пер. с англ. М.Л. Коробочкина. -М., 2004. -120 с.; Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура / Пер. с англ. / Под науч.ред. О.И.Шкаратана. –М.: ГУ-ВШЭ, 2000. –608 с

MDH mamlakatlarida axborot, axborotlashtirish jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy masalalari, falsafiy-metodologik jihatlari tadqiqot ob'ekti sifatida O.Lanseva, O.Kostrina, E.Bakanova, A.Kostyuk, E.Lakizo, Yu.Semenova, M.Fridman, P.Rvalov tomonidan o'rganilgan⁴.

Mamlakatimizda jamiyat axborotlashuvining falsafiy asoslariga oid izlanishlar M.N.Abdullayeva, B.To'rayev, N.Shermuxamedova, U.Bekmurodov, I.Siddiqov, G.G'afforova, G.J.Tulenova ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Axborotlashtirish jarayonlarining jamiyatda identiklikka ta'siri, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va diniy xususiyatlari S.Safojev, A.Saidov, G'Mamatov va O.Allayarov izlanishlarida ochib berilgan. A.Huseynova, I.Saifnazarov va N.Teshayev ilmiy izlanishlarida ta'limning jamiyat rivojidadagi o'rni, axborotlashgan jamiyatning inson hayotini yaxshilashga qaratilgan jihatlar ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ochib berilgan⁵.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar mavzuni tadqiq etishda nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Bu tadqiqotlarda asosan ta'lim va axborotlashgan jamiyat ob'ektiv jarayon sifatida tahlil etilib, uning o'ziga xos jihatlari, tamoyillari bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratilgan. Mazkur dissertatsiyada ulardan farqli ravishda jamiyatda texnik platformalarga moyillik avj olayotgan bugungi sharoitda jamiyatning o'zgarishi, mental o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni o'rganish orqali mavjud muammoni hal qilishga qaratilgan konstruktiv mexanizmlarni ishlab chiqishga diqqat qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band

⁴Андромонова В.В. Социальные сети как фактор становления информационного общества: социокультурный анализ: Автореф. дис. канд. филос. наук. – Ставрополь, 2018. - 23 с.; Семенова Ю.А. Гражданская идентичность личности в глобализирующемся мире: философско-антропологический аспект: Дис. ... канд. филос. наук. – Челябинск, 2012. - 129 с.; Фридман М.Ф. Глобальная научно-образовательная политика информационного общества: философско-антропологическая концепция новой культурно-исторической парадигмы: Автореф. дис. док. филос. наук. - М., 2018. - 39 с.; Рвалов П.Н. Конститутивные характеристики и статус информационной власти: контекст медиасферы когнитивного общества : Дис. ... канд. филос. наук. – Томск, 2020. - 138 с.

⁵Хозирги замон фанида имконият муаммолари. Жамоавий монография. / Масъул мухаррирлар: ф.ф.д., проф. О.Файзуллаев, ф.ф.д. М.Н.Абдуллаевлар. - Т., ЎзР Фанлар Академияси “Фан” нашриёти, 1993. - Б. 55.; Тўраев Б.О. Онтология, гносеология ва фан фалсафаси муаммолари. -Т.: “Ўзбекистон миллий кутбхонаси”, 2015. - 376 б.; Н.А.Шермухамедова. Техника фалсафаси. - Тошкент, 2014. - Б 151; Муминов Б.Б., Бекмуродов У.Б. Интеллектуал мулоқот тизимларида билимларни инфодалашнинг хусусиятлари ва уларнинг таҳлили // “Мухаммад ал-Хоразмий авлодлари” журнали. Тошкент 2021. -Б.17.; Сиддиқов И. Б. Интеллектуал маданият: тушунча ва таҳлил// Фалсафа ва ҳуқуқ.- Тошкент, 2017. - № 2. - Б.37-40.; Ғаффарова Г. Аxborotlashgan jamiyatda terrorchilik faoliyati haqida //Глобал терроризм ва унинг геосийсий ўлчами мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари.2-китоб. Навоий, 2005.-Б.45-47, Г.Ж. Туленова Философские проблемы. Науки и техники. Ташкент. Алоқачи. 2022. 134-135 с.; Safojev S. Global jarayonlar va milliy monandlik // «Tarix va o'zlikni anglash: O'zbekiston va Germaniya tajribasi» mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. -Toshkent: Patern-Press, 2005. -B.9.; Saidov A.X. Inson huquqlari va hozirgi dunyoda monandlik muammolari // «Tarix va o'zlikni anglash: O'zbekiston va Germaniya tajribasi» mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. -Toshkent: Patern-Press, 2005. -B.45-53; Mamatov G'. S. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosatining uyg'unligi (O'zbekiston Respublikasi misolida). Siyos.fan.bo'y.fal.dok. (PhD). dis. avtoref. –Toshkent, 2020. - 50 b; Allayarov O. O'zbekiston barqaror taraqqiyotini ta'minlashda internet texnologiyalaridan samarali foydalanish mexanizmlari. Siyos.fan.bo'y. fals.dok. (PhD) dis.avtoref. –Toshkent, 2019. - 51 b.; Тешаев Н. Соғлом турмуш тарзи – маънавий баркамоллик асоси // Pedagogikmahorat. -№ 2, 2017. – б.142.; Саифназаров И. Маънавий баркамоллик васийсий маданият. – Тошкент, «Шарк», 2001.

“Yangi O‘zbekistonda ma’rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari” (2022-2026 yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta’limning axborotlashgan jamiyatning funksional rivojlanishiga ta’sirini ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“ta’lim” va “axborotlashgan jamiyat” tushunchalarining mohiyatini aniqlash va zamonaviy paradigmalarning falsafiy ahamiyatini asoslab berish;

ta’lim va axborotlashgan jamiyatning o‘zaro aloqadorligi, axborotlashgan jamiyat va inson taraqqiyoti sohasida ijtimoiy-madaniy rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;

axborotlashgan jamiyatda inson kapitalini rivojlantirishda ta’limdagi ijtimoiy innovatsiyalarning funksional rolini aniqlash;

Yangi O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat rivojining ma’rifiy asoslarini mustahkamlashda ta’lim tizimining funksional ahamiyatini asoslab berish;

global axborot makonida ta’lim taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalarini Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-ma’naviy rivojlanish jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlarini tadqiq etish;

yoshlarda axborotlashgan jamiyatga xos modernistik tafakkurni shakllantirishda ta’limning istiqboldagi vazifalari hamda konstruktiv usullari va ratsional vositalarini takomillashtirishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida ta’lim va axborotlashgan jamiyat, ularning o‘zaro dialektik aloqadorlik munosabatlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti jamiyatni axborotlashtirishning zamonaviy axborot-texnika vositalari yordamida ta’lim jarayonlarini takomillashtirish va yuksaltirishdagi o‘rnini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, obyektivlik, tarixiylik va mantiqiylik, kompleks yondashuv, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil, sotsiologik so‘rov kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ta’lim va axborotlashgan jamiyat rivoji bilim va axborotning epistemologik, ontologik, tizimli xususiyatlari atributiv, funksional, kommunikativ yondashuvlarda namoyon bo‘lishining konstruktiv asoslari axborotlashgan jamiyatda dialektik aloqadorlik kontekstida teskari aloqa orqali namoyon bo‘lishi aniqlangan;

ta’lim va axborotlashgan jamiyatni falsafaning imkoniyat va voqelik kategoriyasi asosida tahlil etish, anglash, axborotlashtirish jarayonlarida axborot va ta’limning konstruktiv ahamiyati tizimli yondashuvga ko‘ra ochib berilgan;

axborotlashgan jamiyat ta’lim rivojiga ta’sir etuvchi ideologik vositalar hamda ulardan foydalanishiga oid muammolarni echishga yo‘naltirilgan texnologiyalar davlat boshqaruvida kiberxavfsizlik, axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, mafkuraviy immunitetni ta’minlash bilan bog‘liq strategik yo‘nalishlarga chambarchas aloqador ekani asoslab berilgan;

ta’limning texnologik va ekzistensial (informatsion epistemologiya), ekzoterik (ko‘zga tashlanadigan) va ezoterik (pinhoni) bilim turlari orqali axborot oqimining

sintezlashgan holda milliy madaniyatlar transformatsiyalashuvi fonida vujudga kelishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ta'lim rivojida axborot va boshqa ob'yektiv omillar roli va ahamiyatini belgilab beruvchi ijtimoiy-huquqiy hamda ma'naviy-axloqiy me'yorlarni ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari aniqlashtirilgan;

axborotlashgan jamiyat funksional rivojlanishining ilmiy konseptual manbalarini aniqlash, ularni takomillashtirish va muvofiqlashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan;

zamonaviy taraqqiyot bilan hamnafas, hamqadam bo'lishda ta'limni muntazam boyitib borish va jahon tajribasini muntazam o'rganish, ta'lim sohasi kadrlarini boshqarishda rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini joriy etish zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqot materiallaridan ta'lim va axborotlashgan jamiyat funksional rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etishga oid yangi nazariy va empirik tadqiqotlarni olib borishda hamda bugungi kunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi bilim olishning yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqishda, ta'lim sohasidagi tadqiqotlar, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan xizmatlarini ko'rsatishda va tahliliy ma'lumotnomalar tayyorlashda, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlarda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mohiyatini ko'rsatib berishda, shuningdek, sohaga oid grantlarni shakllantirish va ularni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada bayon qilingan yondashuvlardan axborot texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga keng qo'llash, davlat va jamoat tashkilotlarida, ta'lim va ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirishda hamda o'quv kurslarining fan dasturlari va ma'ruza matnlarini, mavzuga oid darsliklarni tayyorlashda, ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishda, ta'lim muassasalarida "Ijtimoiy falsafa", "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati", "Innovatsion faoliyat asoslari" fanlari bo'yicha tayyorlanadigan darslik va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirish jarayonida hamda ilmiy-pedagogik faoliyatda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta'limning axborotlashgan jamiyat funksional rivojlanishiga ta'sirini tadqiq etish asosida olingan natijalar asosida:

ta'lim va axborotlashgan jamiyat rivoji bilim va axborotning epistemologik, ontologik, tizimli xususiyatlari atributiv, funksional, kommunikativ yondashuvlarda namoyon bo'lishining konstruktiv asoslari axborotlashgan jamiyatda dialektik aloqadorligi kontekstida teskari aloqa orqali namoyon bo'lishiga oid nazariy

umumlashmalar va xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170928696-raqamli “O‘zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)” (2018-2020 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 29 maydagi 04/11-3249-son ma‘lumotnomasi). Natijada, axborotlashgan jamiyatda ta‘limning hozirgi tez o‘zgaruvchan olamda inson murakkab tafakkurga asoslanib dunyoni anglashi va bilimning o‘rni bilan bog‘liq nazariy yo‘nalishlarni falsafiy tadqiq etishga bo‘lgan zarurat yanada oshib borishiga hamda yoshlarni jamiyatda chin axborotni anglay olishida xizmat qilgan;

ta‘lim va axborotlashgan jamiyatni falsafaning imkoniyat va voqelik kategoriyasi asosida tahlil etish, anglash, axborotlashtirish jarayonlarida axborot va ta‘limning konstruktiv ahamiyatiga doir xulosa va taklif-tavsiyalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022-2023 yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qaroriga asosan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da ko‘rsatilgan funksiyalarni amalga oshirishda hamda “Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi noxolis axborotlarga qarshi aholi, ayniqsa yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va jamoatchilikda muayyan holatlar haqida haqqoniy fikr shakllanishiga ko‘maklashish”ga bag‘ishlangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2023 yil 6 martdagi 76-son ma‘lumotnomasi). Natijada, jaholatga qarshi ma‘rifat, ilm va amal, yoshlar jamiyat rivoji uchun oladigan axborotning chinligini yanada takomillashtirish kabi profilaktik tadbirlar mazmunini boyishiga va samarali natijalarga erishishga xizmat qilgan;

axborotlashgan jamiyat ta‘lim rivojiga ta‘sir etuvchi ideologik vositalar hamda ulardan foydalanishiga oid muammolarni echishga yo‘naltirilgan texnologiyalar davlat boshqaruvda kiberxavfsizlik, axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, mafkuraviy immunitetni ta‘minlash bilan bog‘liq strategik yo‘nalishlarga chambarchas aloqador ekanligiga doir nazariy umumlashmalar va tahlillar, taklif va tavsiyalardan Yoshlar ishlari agentligining “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to‘g‘risida Nizom”i 3-bob “Yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!” g‘oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish” bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023 yil 11 maydagi 4-13-21-1247-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yigit-qizlarning axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilgan;

ta'limning texnologik va ekzistensial (informatsion epistemologiya), ekzoterik (ko'zga tashlanadigan) va ezoterik (pinhoni) bilim turlari orqali axborot oqimining sintezlashgan holda milliy madaniyatlar transformatsiyalashuvi fonida vujudga kelishiga doir yangiliklar va tavsiyalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil efirga uzatilgan "Assalom Buxoro", "Yoshlar vaqti", "Najot bilimda", "Zamondosh" teleko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023 yil 1 fevraldagi 01-04-25-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarni barkamol, ilmga intiluvchan, jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan, rostgo'y va halol inson bo'lib etishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish masalalari bo'yicha ma'lumotlarni olish imkonini berib, teleko'rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (xususan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiya ishining "**Axborotlashgan jamiyatda ta'lim taraqqiyotini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida axborotlashgan jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari va tarixiy retrospektiv xususiyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili hamda ta'lim rivojlanishida jamiyat axborotlashuvining funksional ahamiyati tadqiq etilgan.

Axborotlashgan jamiyat rivojlanishi ta'sirida, nafaqat ishlab chiqarish va texnologiyalar sohasida, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va madaniy-ma'naviy hayotda ham tub o'zgarishlar sodir bo'ladi. Shu bois jamiyatni axborotlashtirishni - axborotlashgan jamiyat qurish negizida, uni yanada progressiv rivojlantirish maqsadida axborotni boshqaruv resursi sifatida o'zlashtirish va informatika vositalari yordamida rivojlantirish deb tushunish lozim.

Dissertant fikricha, axborot va bilim jamiyat rivojlanishining barcha davrlarida muhim rol o'ynagan va o'ynamoqda. Jamiyat hayotida axborotning ahamiyati va

rolini mohiyatan anglashga aloqador holatlarda axborot va bilimning o‘zaro aloqasini tushunish alohida ahamiyat kasb etadi. Axborotlashgan jamiyat hozirgi zamon fanida muhim o‘rin egallaydi. U industrial va postindustrial jamiyat konsepsiyasi o‘rnini egallab, informatika va axborot texnologiyasi jamiyat ijtimoiy tuzilishini, ishlab chiqarish kuchlarini o‘zgartirish, yaxlit axborot sanoatini vujudga keltirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi⁶, degan shartlarga asoslanadi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni hozirgi kunda global xususiyatga ega bo‘lib, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘zagini tashkil etmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish faqat texnik-texnologik muammolar yechimi bilan bog‘lash mumkin emas. Jamiyatni axborotlashtirish juda ko‘p qirrali murakkab jarayon bo‘lib, unda texnik-texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlar uyg‘unlikda bo‘ladi. Bu jarayon ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarida sifat o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi. Axborotlashgan jamiyat rivojlanish ta‘sirida, nafaqat ishlab chiqarish va texnologiyalar sohasida, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va madaniy-ma‘naviy hayotda tub o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Shu bois jamiyatni axborotlashtirishni-axborotlashgan jamiyat qurish negizida, uni yanada progressiv rivojlantirish maqsadida axborotni boshqaruv resursi sifatida o‘zlashtirish va informatika vositalari yordamida rivojlantirish deb tushunish lozim.

Dissertatsiyada ta‘lim tizimida o‘quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi informatsion texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullarini ishlab chiqish va ularni keng joriy qilish bugungi kunning talabi ekanligi ta‘kidlanadi. Ta‘lim inson turmush tarzining ajralmas elementidir. Unga nafaqat moddiy jihatdan ta‘minlanish vositasi, balki salomatlik hamda jamiyat hayotida muntazam ishtirok etish vositasi sifatida ham qaraladi. Ta‘lim har qanday rivojlangan jamiyatning asosi hisoblanadi. Madaniyat ta‘limsiz mavjud bo‘lmaydi. Bu jamiyatda adolatsizlik va tengsizlikni bartaraf etishning vositalaridan biridir.

Axborotlashtirish albatta, yangi zamonaviy o‘quv vositalarini yaratishni talab qiladi. Bunga hozirda yaratilayotgan elektron o‘quv qo‘llanma, elektron darslik, elektron kutubxonalar misol bo‘la oladi. Hozirgi vaqtda o‘quv jarayonini interaktiv elektron o‘quv kurslar yordamida olib borilishiga talab juda ham katta⁷.

Tadqiqotchi fikricha, axborotlashgan jamiyat-axborot, bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band jamiyatdir. Axborotlashgan jamiyatning bosh maqsadi jamiyatning har bir fuqarosiga har qanday joy va sharoitda, ixtiyoriy vaqtda kerakli axborotga ega bo‘lishi uchun huquqiy va ijtimoiy kafolatni ta‘minlash hisoblanadi⁸.

Insonlar yozuvdan foydalanishni boshlaganlaridan so‘ng dastlab qo‘lyozma, tarixiy yilnoma, shunga o‘xshash bitiklar va eng muhimi dastlabki yozma axborot kitobdan foydalanish boshlanib bu insoniyatning ong va bilim darajasini yuqori

⁶Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Биринчи жилд. - Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019. –Б.120.

⁷ Ходжабаев Ф.Д. Мирсанов У.М. Мултимедияли интерактив китобларни яратишда испринг дастуридан фойдаланиш “Умумтаълим мактаблари таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг долзарб муаммолари ва ечимлари: Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами Навоий, 2016. – Б. 12-13

⁸«Оммавий ахборот воситалари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида. Ўзбекистон Республикаси қонуни, 15.01.2007 йилдаги ЎРҚ-78-сон// <https://lex.uz/docs/1106870>

bosqichga olib chiqqan. Avvallari axborot birlik ya'ni tor ma'noda asosan ma'lumot olish-berish shaklida bo'lgan bo'lsa, endilikda axborot kengroq insonda falsafiy, axloqiy-estetik, boshqaruv, iqtisod va boshqa bilimlarni rivojlanishiga qaratilmoqda.

Dissertatsiyada axborot va axborotlashgan jamiyat tushunchalari, ularning funksional ahamiyatini tahlil qilish asosida axborot sohalari to'g'risidagi masala yuzasidan bo'lib o'tgan falsafiy munozaralarda uch yondashuv tahlil etilgan. Birinchisi, axborot muloqot sohasi va umumilmiy refleksiya vositasi sifatida talqin qilinadi. Ikkinchisi, u o'z-o'zidan tashkil bo'luvchi tizimlarning o'zaro ta'sirlarni tartibga solish bilan bog'liq xossasi sifatida tushuniladi. Uchinchisi, axborot materiya va energiya taqsimlanishining har xilligi o'lchovi, dunyoning azaliy turli-tumanligini ko'rsatuvchi moddiy tizimlar xossasi sifatida namoyon bo'ladi. Axborotning mazkur talqini hozirgi zamon nazariyasidan axborotning atributiv kommunikativ va funksional konsepsiyalari, degan nom bilan o'rin olgan⁹. XXI asrning "Axborot almashinuvi" deb atalishi zamonaviy axborot texnologiyalari, axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot asosida ta'lim-tarbiya jarayoni olib borilmoqda, ijtimoiy hayot samarali boshqarilmoqda.

Dissertant fikricha, axborotlashtirish jarayoni o'z bosqichlariga ega. Birinchi bosqich-jamiyatni *elektronlashtirish*. Bu bosqich sof texnik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich-jamiyatni *kompyuterlashtirish* bosqichida eng yangi kommunikatsiyalar yordamida texnik vositalar tarqatiladi, axborotlashtirishning texnik negizi shakllanadi. Jamiyatni axborotlashtirish bosqichi, o'z mohiyatiga ko'ra, inson va jamiyat manfaatlarida axborot ishlab chiqarish va undan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy texnik va ijtimoiy-madaniy jarayondir¹⁰.

Yangilanayotgan O'zbekiston o'z oldiga bugun shunchaki rivojlanishni emas, balki jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida eng kuchli davlatlar qatoridan o'rin olishni asosiy marra qilib qo'ygan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu haqda: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi. Chunki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste'dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q"¹¹, – deb takidlagan. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib borayotganligiga alohida e'tibor qaratilishi ortidan yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 33-moddasida: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda

⁹Назаров К. Жаҳон фалсафаси комуси. Биринчи жилд. - Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019. –Б.118

¹⁰Назаров К. Жаҳон фалсафаси комуси. Биринчи жилд. - Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019. –Б.117.

¹¹Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: "O'zbekiston", 2021.- Б.24

jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi"¹², - deb alohida mustahkamlab qo'yildi.

Dissertant axborot jamiyati to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar tahlili asosida uning asosiy xususiyatlarini quyidagi mezonlarga muvofiq aniqlash va shakllantirishga lozimligini ta'kidlaydi:

texnologik omil - ishlab chiqarishda, muassasalarda, ta'lim tizimida va kundalik hayotda keng qo'llaniladigan axborot texnologiyalari.

ijtimoiy omil - axborot hayot sifatini o'zgartirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi, u "axborot ongi" shakllantirish va axborotga keng kirish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

iqtisodiy omil – axborot resurs, xizmat, mahsulot, qo'shilgan qiymat manbai va bandlik sifatida qaraladi.

siyosiy omil –axborot erkinligi, aholining turli sinflari va ijtimoiy qatlamlari o'rtasida o'sib borayotgan ishtirok va konsensus bilan tavsiflanadi.

madaniy omil – shaxs va jamiyat taraqqiyoti manfaatlari yo'lida qadriyatlarni asrash, ma'lumotlarning madaniy ahamiyatini yuqorishga ko'tarish bilan belgilanadi.

Dissertant fikricha, butun dunyoda AKT texnologiyalari, raqamli iqtisodiyoti, avtomatlashtirish rivoji, umumiy axborot texnologiyalari taraqqiyoti kishilik jamiyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Tarix shuni ko'rsatadiki har bir kishilik jamiyati yangi bosqichiga o'tilishi evolutsion, tadrijiy yo'sinda amalga oshadi. Har bir yangi bosqichda yangi kasblar, yangi odatlar, san'at, fan, madaniyat, siyosat, maorif, axloq, yangicha dunyoqarash vujudga keladi. Axborotlashgan jamiyatga o'tishni bugungi kunda ayrim davlatlar davlat dasturi darajasiga ham kirgizishmoqda. Bu jamiyatga qadam tashlash ko'pgina sohalarda sifat va miqdor jihatdan ustunlikni ta'minlashga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Axborotlashgan jamiyatda ta'lim vazifalarining ijtimoiy-modernistik va gumanistik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida axborotlashgan jamiyatda ta'lim taraqqiyotining shakllanishida ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning o'rnini, jamiyatda axborot transformatsiyasi jarayoni, shuningdek, ta'lim taraqqiyoti shakllanishida ijtimoiy ob'ektiv omillarning o'rnini va ahamiyati tadqiq etilgan.

Bugungi kunga kelib, jamiyatda “moddiy” ishlab chiqarishga asoslangan omillar o'z o'rnini axborotni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilishga asoslangan “axborotlashgan jamiyat”ga bo'shatib berayotganligini inkor qilib bo'lmaydi. Shu sababli, zamonaviy ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar asosida axborotlashgan jamiyatda ta'lim taraqqiyotining shakllanish xususiyatlarini har tomonlama tadqiq qilish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Dissertant qayd etishicha, jamiyatning axborotlashuvi deganda, kognitiv ijtimoiy tuzulma va jarayonlarning zamonaviy, texnologik vositalari yordamida

¹² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi / Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan.
// <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

takomillashuviga aytiladi, ayni paytda axborotlashuv ijtimoiy intellektuallashuv jarayonlari bilan mutanosiblikda kechishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dissertatsiyada axborotlashgan jamiyat - jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va inson taraqqiyotida axborot sohasining kengayishi, ahamiyati va ta'siri ortib borishi, axborotni ishlab chiqarish, uni saqlash, amaliyotga qo'llash va yetkazish jarayoni ifodalaydigan tshuncha sifatida tahlil etilgan. Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasi industrial va postindustrial jamiyat konsepsiyasi o'rniga kelib, axborot texnologiyasi jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, ishlab chiqarish kuchlarini o'zgartirish, axborot sanoatini vujudga keltirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida hozirgi zamon industrial jamiyat to'g'risidagi ratsional ta'limotlar (Dj. Bell, U.Rostou, Z.Bjezinskiy) doirasida ilgari surishga asos bo'lgan.

Dissertant S.Nora va A.Minkning informatsion jamiyat g'oyasini ijtimoiy-falsafiy tahlil etishda axborotlashgan jamiyat to'laqonli bozor iqtisodiyoti shakllangan jamiyat ekanligini, unda ta'lim va axborot har bir insonni barkamol qilishini, boshqaruvda axborot va muvofiqlashtirish umumiy jarayonda taraqqiy etishini asoslab bergan. "Informatsion jamiyatda, - deya ta'kidlashadi S.Nora va A.Mink, - guruh rejalari ilgariga nisbatan ko'proq miqdorda ijtimoiy va madaniy intilishlarni ifodalaydi. Bu sharoitda faqat zarur axborotga ega hokimiyat mamlakat taraqqiyotiga yordam berishi va uning mustaqilligini kafolatlashi mumkin"¹³.

Axborotlashgan jamiyat taraqqiyoti natijasida aholining ko'p qismi axborotlarni o'zida qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va qo'llash bilan band bo'ladi. Bu esa inson faoliyatini o'z vaqtida axborotga ega bo'lgani va undan foydalana olganligiga bog'liq bo'lib, barcha sohalarning zamonaviy mutaxassisi axborot oqimlarida erkin harakatlanishi uchun axborot generatsiyasini (ishlab chiqish, ko'paytirish) kompyuterlar, telekommunikatsiyalar kabi aloqa vositalaridan foydalana olishni (bilishni) talab etmoqda. Bugun dunyodagi barcha davlatlar axborot va bilimga asoslangan axborotlashgan jamiyat sari borayotganligidan, hozirgi vaqtda axborotning tez va sifatli aylanishini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining bosh mezoniga aylanishidan dalolat beradi.

Dissertatsiyada jahon miqyosida axborot kommunikatsiya texnologiyalari dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shishi bilan birga, murakkab va ziddiyatli xarakterga ega bo'lgan jarayonlarni ham keltirib chiqarayotganligi ta'kidlangan.

XXI asrda axborot resurslari ijtimoiy, madaniy, ma'naviy sohadagi ma'lumotlar orqali turli yosh va toifadagi shaxslarning ongiga ta'sir qilib, ularning dunyoqarashi, ijtimoiy xarakteri hamda tafakkurini shakllantirish vositasi sifatida real voqelikka aylandi. Shu sababli axborotlashgan jamiyatda ma'naviyatda ham turli xil o'zgarishlarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiyada axborotlashgan jamiyatning taraqqiyoti quyidagilar bilan tavsiflanishi asoslab berilgan:

-jamiyat hayotida axborot, ta'lim va axborot texnologiyalarining rolini oshirish;

¹³Nora S., Minc A. The Computerisation of Society. A Report to the President of France. Cambridge, L., 1980.

- axborot texnologiyalari, axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarishda band bo'lganlar sonining ko'payishi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish;

- ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda jamiyatni axborotlashtirishning kuchayishi;

- insonning axborot ta'sirlashuvida faol ishtirok etish asoslarini yaratilganligi, axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hamda demokratiya, elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy va iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirishdan iborat.

Axborotlashgan jamiyat sifatli ma'lumotlarning ko'pligi va uni tarqatish vositalari bilan ajralib turadi. Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish uchun va ishlab chiqarish sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish jarayoni bilan bog'liq. Axborotlashgan jamiyat, asosan, sanoat tuzulishidan farq qiladigan yangi ijtimoiy tuzilma sifatida ta'riflanadi¹⁴. Muammoning ushbu ko'rinishi uning tarafdorlari va muxoliflariga ega, ular zamonaviy jamiyatda axborotning ahamiyati aniq oshganligini tan olsalar ham, axborotlashtirishni yangi turdagi jamiyatni tashkil etish vositasi deb bilishmaydi. Ularning fikriga ko'ra, axborot jarayonlari faqat mavjud bo'lgan tizimni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida birlashtirish va mustahkamlashga olib keladi¹⁵.

Dissertatsiyada Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek oliy maqsadga ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati, uning sifat darajasi alohida e'tibor berish orqali erishish mumkinligi asoslab berilgan. Zotan, jahondagi global o'zgarishlar zamonida munosib o'ringa ega kadrlarni tayyorlash va shu orqali, millat va davlat kelajagi bunyodkorlarini yetishtirishdek mas'uliyatli vazifaning qay darajada bajarilishi mazkur soha rivojiga bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, dissertatsiyada axborotlashgan jamiyatda barqarorlikni ta'minlash quyidagi funksiyalarni amalga oshirishni talab etishi qayd etiladi:

- iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, mehnat taqsimoti sohasida; axborot va axborot texnologiyalarining ahamiyati haqida xabardorlikni oshirish;

- kompyuter savodxonligi oshirish;

- kompyuter va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;

- jamiyat va ta'limni kompyuterlashtirish va axborotlashtirishni rivojlantirish;

- kompyuter texnologiyalari va telekommunikatsiyalarini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Axborot jamiyatini hayot sifati, shuningdek, ijtimoiy o'zgarishlar va iqtisodiy rivojlanish istiqbollari tobora ko'proq axborotga va undan foydalanishga bog'liq bo'lgan jamiyat sifatida belgilash mumkin. Bunday jamiyatda turmush darajasi, mehnat va dam olish shakllari, ta'lim tizimi, axborot va bilimlardagi yutuqlar katta ta'sir ko'rsatadi.

¹⁴ Назаров К. Жаҳон фалсафаси қомуси. Биринчи жилд. - Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019. –Б.119

¹⁵ Скородумова О. Б. Отечественные подходы к интерпретации информационного общества: постиндустриалистская, синергетическая и постмодернистская парадигмы// «Знание. Понимание. Умение». - №4. 2009. – Культурология / <http://www.zpu-journal.ru/e-zpu/2009/4/Skorodumova/>

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi raqamli texnologiyalarning turli sohalarga kirib boorish imkonini yaratdi. Yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalardagi islohotlarning borishi ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Chunki, har bir jabhaning taraqqiyoti o'sha soha mutaxassislarining bilimi, idroki, tafakkuri va malakasi, dunyodagi shu yo'nalishning rivojlanish tendensiyalarini qanchalik o'zlashtirganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotda qayd etilishicha, milliy ma'naviyatni yuksaltiradigan, shu bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga ega durdona merosni, ajdodlarimiz asarlarini chuqur o'rganish, undan ta'lim-tarbiya jarayonida unumli foydalanish, milliy axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, hamda milliy ma'naviyatimizni yanada yuksaltirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat va milliy ta’limning rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida axborotlashgan jamiyatda insonning axborot muhitiga moslashuvining o'ziga xos xususiyatlari, axborotlashuv jarayonida ta'lim taraqqiyotini shakllantirish vositalarini takomillashtirish hamda ta'lim taraqqiyotini shakllantirishga ta'siri tahlil etilgan.

Bugungi kunda yoshlar pragmatik kayfiyatda, asosan ta'lim olish nuqtai nazaridan faoliyat olib bormoqdalar. Chunki, hozirgi kunda hammaga ma'lum salbiy mazmundagi saytlarning ham soni va turlari oshib bormoqda. Ularni filtratsiya qilishning hali hanuzgacha mukammal mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Shuningdek, internetdan foydalanish madaniyatiga oid olib borilayotgan tadbir va mashg'ulotlar o'zining samaradorligini bermayapti.

Axborotni tezlik bilan tarqatish, qidirish va qabul qilish uchun juda katta imkoniyatlarni taqdim etayotgan elektron muhit kishilar o'rtasidagi mutlaqo yangi munosabatlar shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

